



O'zbekiston Respublikasi Qonunlari


Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatlilagini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar kiritish haqida (O'RQ-884-son, 25.12.2023-y.)

Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatlilagini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'RQ-887-son, 25.12.2023-y.)

Sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilagini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'RQ-888-son, 25.12.2023-y.)

“Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qonun bilan **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi.**

O‘zgartirishlarga ko‘ra:




Ma’muriy ishlar bo‘yicha sud qarorlarini qayta ko‘rish bosqichlariga **taftish instansiyasi** kiritildi



Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:

Tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiyada ko‘rilgan ishlar viloyat sudlarida va ularga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida, viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar **Oliy sud Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida taftish tartibida qayta ko‘rilishi belgilandi.**



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritildi:

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan **apellyatsiya shikoyatini berish muddati 20 kundan 10 kunga** qisqartirildi.

Apellyatsiya barcha materiallar kelib tushgandan **15 sutkada** apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan ko'rildi.

Ma'muriy qamoqqa olish yoki ma'muriy tartibda chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror ustidan berilgan apellyatsiya **1 sutka ichida** ko'rildi.



“Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan **Fuqarolik protsessual kodeksga** o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritldi.

O‘zgartirishlarga ko‘ra:



Fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat sudlarida va ularga tenglashtirilgan sudlarda **taftish tartibida ko‘rish** bosqichi joriy etildi.

Fuqarolik protsessual kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:



- Yuqori turuvchi sndlар tomonidan quyи sndlarning bekor qilingan qarorlarini yangidan ko‘rish uchun qaytadan ushbu sndlarga yuborish **tartibi chiqarib tashlandi**.
- Har bir sud instantsiyasining zimmasiga ish bo‘yicha yakuniy qaror chiqarish majburiyati yuklatildi.**
- Sud buyrug‘ini bekor qilishni rad etish to‘g‘risidagi **sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkinligi belgilandi**.

Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirishlar kiritildi:

- Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi sudning ajrimi ustidan **xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin**. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.
- Apellyatsiya, cassatsiya va taftish instantsiyasi sudining ajrimi, qarori qabul qilinganidan keyin **darhol qonuniy kuchga kiradi**.
- Birinchi instantsiya sudining apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya yoki cassatsiya instantsiyasi sudining ajrimi ustidan **taftish tartibida shikoyat (protest) berilishi mumkin**.



Fuqarolik protsessual kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudida taftish tartibida ko‘riladigan shikoyat (protest) ushbu sudlar nomiga yo‘llanadi, lekin sud hujjatini qabul qilgan **birinchi instantsiya sudiga** beriladi.



Oliy sud raisining, Bosh prokurorning Oliy sud Rayosatiga taftish tartibidagi protesti bevosita **Oliy sudga beriladi.**

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran **1 yil ichida** beriladi.

“Sud qarorlarining qonuniyligi va asosliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan **Iqtisodiy protsessual kodeksga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.**

O‘zgartirishlarga ko‘ra:



Qonun bilan iqtisodiy ishlar bo‘yicha viloyat sndlari va ularga tenglashtirilgan sndlар tomonidan apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlarni mazkur sndlarda **taftish tartibida** ko‘rish bosqichi joriy etildi.

Iqtisodiy protsessual kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:

Apellyatsiya va cassatsiya instansiyalari sudlari
tomonidan ishlarni yangidan ko‘rish uchun **birinchi**
instansiya sudlariga yuborish tartibi bekor
qilindi hamda ularning zimmasiga ish bo‘yicha
yakuniy qaror chiqarish mas’uliyati yuklatildi.



Ishni taftish instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu ishni birinchi instansiya,
apellyatsiya yoki cassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda, shuningdek ishni yuqori instansiya
sudida taftish tartibida qayta ko‘rishda **ishtirok eta olmasligi belgilandi**.

Iqtisodiy protsessual kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:

Apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarining qonuniy **kuchga kirgan** hal qiluv qarori, ajrimi, qarori, shuningdek apellyatsiya yoki cassatsiya instansiyasi sudining qarori ustidan **Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga taftish tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi)** mumkin.



Iqtisodiy protsessual kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) ishni taftish tartibida ko‘radigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari nomiga yo‘llanadi, biroq **hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga** beriladi.



Hal qiluv qarorini qabul qilgan sud taftish tartibidagi shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e'tiboran **5 kunlik muddatda** uni ishni taftish tartibida ko‘radigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga ish bilan birga yuborishi shart.

Iqtisodiy protsessual kodeksga o‘zgartirishlar kiritildi:

Taftish tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran **bir yil ichida** beriladi.



E'tiboringiz uchun
rahmat !

